



## 1-SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGINI O'RGATISH VA TA'LIM TIZIMDA SAMARADORLIKKA ERISHISH

**Usmonova Odinaxon Sobirovna**

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7797305>

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan ona tili va o'qish savodxonligi darsligining tuzilishi va yaratilgan yangi darsliklarni ta'lim jarayonida foydalanishdagi samarali usullari, hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: mashg'ulot, mobil ilova, o'quv-metodik qo'llanma, darslik, ish daftari.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida oxirgi yillarda o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeini oshirish, maktablar infratuzilmasini yaxshilash, davlat rahbari tomonidan tavsiya etilgan 5 ta tashabbus doirasida o'quvchilarni darsdan tashqari to'garaklarga jalb etish va maktablarda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi ta'lim tizimi eski mazmundagi o'quv dasturlaridan voz kechib, innovatsion raqamli iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkonini beruvchi o'qitish tizimiga o'tmoqda. Bunga yaratilgan darsliklarimiz misol bo'la oladi. Yangi 2021-2022 o'quv yili uchun yaratilgan darsliklar boshqa darsliklardan tubdan farq qiladi. Ya'ni darslikning o'ziga emas, balki, ish daftari, o'qituvchi uchun o'quv metodik qo'llanma va darsliklarning mobil ilovasi bilan yaratilgan.

**Darslik**-davlat ta'lim standartlari, o'quv reja, o'quv dasturi, metodik va didaktik talablar asosida muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, XXI asr ko'nikmalari, umumta'lim maktablaridan keyingi ta'lim bosqichi hamda mustaqil hayotga tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirish va tegishli fanning asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, fanning masad va vazifalaridan kelib chiqib ta'lim oluvchilarning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqariladigan nazariy ma'lumotlar, amaliy tajriba va sinov mashqlarini o'zida jamlagan nashr.

**Ish daftari**-boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv predmetini o'zlashtirishlari uchun ko'makchi hisoblangan, darslikdagi bo'limlarga, o'quvchilarning bilimlarini tekshirish, mashg'ulotlari va uy vazifalariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga mo'ljallangan turli xil (krasvordlar, farqlash, juftini topish, mantiqiy qatorlar tuzish va hokazo)topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.





**O'qituvchi uchun o'quv- metodik qo'llanma(O'qituvchi kitobi)**-darslikdagi mavzulardan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etish uslublari, o'qitish metodikasi, darsda foydalaniladigan vositalar, q o'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchi darsini samarali tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsdi dars o'tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriq va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi oquv nashri.


**Darsliklarning mobil ilovasi**-axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida fanga oid o'quv materiallari, ilmiy ma'lumotlarni bir tomonlama samarali o'zlashtirishga hamda mustaqil ta'lim olishga mo'ljallangan, elektron matn, ikki o'lchamli grafik, uch o'lchamli grafik ko'rinishidagi , ovozli, video, animatsiya hamda taktil(sensorli) xususiyatli , o'quvchiga mustaqil foydalanish (ta'lim olish)imkoniyati integratsiya qilingan, grafik integratsiyalar orqali ta'lim oluvchi tasavvurini rivojlantirishga yo'naltirilgan smart qurilmalarda ishlovchi elektron axborot ta'lim resursi.

Darhaqiqat, ta'lim tizimida shu darajada katta o'zgarishlar bo'lib turgan bir paytda o'qituvchilar ham o'z ustilarida ishlab, kelajak avlodni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalamog'i lozim.

1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida o'tilyotgan nutqiy mavzular yordamida qanday malaka talablari qo'yilgani, bunda qaysi jihatlarga e'tibor berish lozimligi mashq va topshiriqlarni bajarish, darsni qanday texnologiya asosida tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim . O'qish savodxonligi doirasida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish malakalarini, tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonliklarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.R.Safarova va boshqalar,Alifbe metodik q o'llanma.Toshkent:Respublika ta'lim markazi, 2021,- 96 b.7-b
2. I.Azimova va boshqalar,Ona tili va o'qish savodxonligi 2-qism, 1-sinf uchun darslik-Toshkent:Respublika ta'lim markazi, 2021.-104 b.
3. I.Azimova va boshqalar,Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism, 1-sinf uchun darslik-Toshkent:Respublika ta'lim markazi, 2021.-104 b.
- 4.Usmanova, O. S. (2022). National curriculum and new generation mathematics textbook. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(2), 11-16.
- 5.Sobirovna, U. O. (2022). The Use of Mnemotechniques in Teaching Younger Schoolchildren. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 446-450.





- 6.Usmonova, O. (2016). Ikkinchi sinf darsliklarida shartli belgilar. Ta'lim va kasbiy mahorat. Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami, 1(06), 46-49.
- 7.Sobirovna, U. O. (2022). The Use of Mnemo Technique in the Textbook of Primary School Native Language and Reading Literacy. International Journal of Culture and Modernity, 17, 421-426.

